

**RAQAMLI MULK HUQUQINI HIMOYA QILISHGA OID
XALQARO STANDARTLARNI MILLIY QONUNCHILIKKA
UYG'UNLASHTIRISH**

Xudaibergenova Dilnoza Ulug'bek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistri

E-mail: dilush826@gmail.com

Anotatsiya: ushbu maqolada raqamli mulk huquqi tushunchasining xalqaro huquqiy maydondagi rivojlanishi va uning O'zbekiston milliy qonunchilik tizimiga integratsiyalashuvi tahlil qilinadi. BMT, YUNESKO, WIPO, ITU, OECD va Yevropa Ittifoqi kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan huquqiy hujjatlar asosida raqamli mulk obyektlari, tokenlar, NFTlar, algoritmlar va sun'iy intellekt mahsulotlarining huquqiy maqomi ochib beriladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Fuqarolik kodeksi misolida milliy huquqiy bo'shliqlar tahlil qilinib, ularni xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish yo'llari ko'rsatiladi. Shuningdek, maqolada "yumshoq huquq", huquqiy transplantatsiya, komparativ metodlar, raqamli egalik va funksional mulk modellari, elektron shartnomalar va blokcheyn asosidagi egalik huquqi kabi zamonaviy yondashuvlar asosida huquqiy modernizatsiya zarurati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: raqamli mulk, tokenlar, NFT, algoritmlar, sun'iy intellekt, xalqaro standartlar, fuqarolik kodeksi, konstitutsiyaviy huquqlar, mulk huquqi, huquqiy transplantatsiya, yumshoq huquq, blokcheyn, raqamli shartnoma, ma'lumotlar egaligi, isbotlash mexanizmlari, WIPO, MiCA, eIDAS, GDPR, Data Act.

ГАРМОНИЗАЦИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ ЦИФРОВОЙ СОБСТВЕННОСТИ С НАЦИОНАЛЬНЫМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВОМ

Худайбергенова Дилноза Улугбековна

Студент направления "Право средств массовой информации" Ташкентского
государственного юридического университета

E-mail: dilush826@gmail.com

***Аннотация:** в статье анализируется развитие концепции цифровой собственности в международном праве и её гармонизация с национальным законодательством Узбекистана. На примере документов ООН, ЮНЕСКО, ВОИС, МСЭ, ОЭСР и Европейского союза рассматриваются вопросы правового признания токенов, NFT, алгоритмов и продуктов искусственного интеллекта как объектов цифровой собственности. Раскрываются правовые пробелы в Конституции и Гражданском кодексе Республики Узбекистан, а также предлагаются пути их устранения на основе международных стандартов. В центре внимания — модернизация законодательства с применением «мягкого права», правовой трансплантации, сравнительного метода, а также внедрение электронных договоров, блокчейн-реестров и функциональных моделей собственности.*

***Ключевые слова:** цифровая собственность, токены, NFT, алгоритмы, искусственный интеллект, международные стандарты, гражданский кодекс, конституционные права, блокчейн, правовая трансплантация, soft law, цифровые контракты, владение данными, механизм доказательства, WIPO, MiCA, eIDAS, GDPR, Data Act*

Raqamli mulk tushunchasi axborot texnologiyalarining keskin rivojlanishi fonida xalqaro huquqiy tartibga solishning yangi yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. An’anaviy mulk huquqining modellashtirilgan ko‘rinishi endi raqamli obyektlar, algoritmik kodlar, blokcheyn asosidagi aktivlar va metama’lumotlar kabi shakllarda ko‘zga tashlanyapti. Ushbu tendensiyaning muvozanatli boshqarish uchun bir qator xalqaro tashkilotlar va normativ platformalar konseptual huquqiy yondashuvlar ishlab chiqqan.

Avvalo, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan ishlab chiqilgan “Raqamli hamkorlik bo‘yicha yo‘l xaritasi” raqamli mulk va uning huquqiy holatini tan olish borasida global pozitsiyani ifodalaydi. Bu hujjatda raqamli texnologiyalar orqali yaratilgan mulk, ma’lumotlar va intellektual mahsulotlar ustidan universal egalik huquqini ta’minlash uchun adolatli, inklyuziv va barqaror huquqiy mexanizmlar ishlab chiqish tavsiya etiladi. “Dunyo har qachongidan ham tezroq analogdan raqamligaga o‘tmoqda, bu bizni yangi texnologiyalarning keng va’dalari va xavf-xatarlari bilan tanishtirmoqda. Raqamli davr jamiyatga juda ko‘p ajoyib foyda keltirgan bo‘lsa-da, biz raqamli tafovut, kiber tahdidlar va onlayn inson huquqlari buzilishi kabi ko‘plab muammolarga duch kelamiz”, deyiladi hujjat matnida¹. Xususan, yo‘l xaritasida raqamli identitet, shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi va algoritmik shaffoflik kabi masalalar alohida yoritilgan bo‘lib, ular bevosita raqamli mulkka egalikni mustahkamlash bilan bog‘liq. YUNESKO esa o‘zining “Raqamli platformalar bo‘yicha global tavsiyasi”da foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan raqamli kontent, algoritmlar va sun’iy intellekt natijalarining

¹ United Nations. Roadmap for Digital Cooperation. – New York: UN, 2020. – URL: <https://www.un.org/en/content/digital-cooperation-roadmap>.
SJIF:5.219

huquqiy maqomini aniqlashtirish zaruratiga e'tibor qaratadi. Bu hujjat raqamli mulk egalarining erkinliklari va manfaatlarini, ayniqsa, madaniy va ijodiy kontent yaratuvchilarini himoya qilishga urg'u beradi². Shu bilan birga, ITU (Xalqaro Telekommunikatsiya Ittifoqi) tomonidan qabul qilingan "Raqamli ishonch va xavfsizlik tamoyillari" da raqamli infratuzilmalarda mulk xavfsizligini ta'minlovchi texnik mezonlar muhim o'rin egallaydi³.

Jahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) esa raqamli aktivlar va intellektual mulkning yangi shakllari bo'yicha xalqaro bahs-munozaralarga yetakchilik qilib kelmoqda. Xususan, 2023-yilda tashkilot tomonidan o'tkazilgan "Generativ sun'iy intellekt va mualliflik huquqi" bo'yicha ekspert yig'inida algoritmik ijod mahsulotlariga egalik huquqining aniqligi ustuvor masala sifatida o'rganilgan. OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) esa raqamli iqtisodiyotda mulkiy manfaatlarining boshqaruvi, tokenlar va NFTlar kabi aktivlar ustidan nazorat mexanizmlari haqida yillik hisobotlar tayyorlab bormoqda⁴.

Yevropa Ittifoqi esa bu borada huquqiy me'yorlarni bevosita joriy etgan yetakchi siyosiy hududlardan biridir. Jumladan, MiCA (Markets in Crypto-assets) reglamenti kriptoaaktivlar va tokenlar ustidan egalikni tartibga solishda mulkiy huquqning aniqligini, investorlar huquqini va regulyatorlar vakolatini belgilaydi. Ushbu reglament 2023-yilda qabul qilinib, 2024-yildan boshlab kuchga kirgan⁵.

² UNESCO. Guidelines for the Governance of Digital Platforms. – Paris: UNESCO, 2021. – URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000380618>.

³ International Telecommunication Union. Digital Trust and Security Principles. – Geneva: ITU, 2022. – URL: <https://www.itu.int/en/ITU-D/Conferences/WTDC/2022>.

⁴ World Intellectual Property Organization (WIPO). Generative AI and Intellectual Property Policy. – Geneva: WIPO, 2023. – URL: https://www.wipo.int/about-ip/en/artificial_intelligence.

⁵ European Union. Regulation (EU) 2023/1114 on Markets in Crypto-assets (MiCA). – Official Journal of the EU, 2023. – URL: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A32023R1114>.

Shuningdek, eIDAS (electronic IDentification, Authentication and trust Services) reglamenti raqamli imzo, elektron shartnomalar va hujjatlar orqali mulkni huquqiy tasdiqlash vositalarini aniqlaydi. Bu reglament blokcheyn asosidagi egalikni isbotlashda ham qo'llanilmoqda⁶.

Yevropa Ittifoqining yana bir muhim hujjati – GDPR (General Data Protection Regulation) esa raqamli ma'lumotlar ustidan shaxsiy nazorat va egalik huquqini kafolatlaydi. Raqamli aktivlar, ayniqsa, ma'lumotlarga asoslangan mulk bo'lgan hollarda, GDPR foydalanuvchining o'z raqamli izlari ustidan huquqiy nazoratini belgilab beradi. Umuman olganda, xalqaro standartlar raqamli mulk tushunchasini faqat texnologik emas, balki huquqiy doirada ham asoslashga intilmoqda. Bu huquqiy asoslar O'zbekiston kabi davlatlar uchun milliy qonunchilikni modernizatsiya qilishda muhim yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Bu Konstitutsiyamizning 15-moddasida ham o'z aksini topadi. Xususan, unda shunday deyiladi: "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismidir. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining qonunida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalari qo'llaniladi".

Raqamli mulk tushunchasining xalqaro huquqda shakllanishi XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi global axborot texnologiyalari inqilobi bilan chambarchas bog'liq. Dastlab bu tushuncha texnik va iqtisodiy doirada qo'llanilgan bo'lsa,

⁶ European Union. Regulation (EU) No 910/2014 on electronic identification and trust services (eIDAS). – Official Journal of the EU, 2014. – URL: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A32014R0910>. SJIF:5.219

hozirgi kunda u xalqaro huquqiy tizimlar tomonidan ham tan olinayotgan, muhokama etilayotgan va normativ asosga ega bo'layotgan huquqiy institut sifatida rivojlanmoqda. Raqamli mulk deganda, shaxs yoki tashkilot tomonidan raqamli muhitda yaratilgan, boshqarilayotgan, uzatilayotgan va saqlanayotgan aktivlar – masalan, elektron hujjatlar, raqamli identitet, kriptoaktivlar, algoritmlar, sun'iy intellekt mahsulotlari va metama'lumotlar tushuniladi. Xalqaro huquqda raqamli aktivlarni tan olishga doir konseptual yondashuvlar turlicha bo'lib, ularning umumiy yo'nalishi – raqamli aktivlarning huquqiy subyektga tegishliligi, ulardan foydalanish huquqi va ularga egalik qilish mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan. AQShda raqamli mulk ko'pincha intellektual mulk huquqlari (IPR) yoki shaxsiy mulk sifatida tasniflanadi, Yevropa Ittifoqida esa “ma'lumotlar egaligi” va “raqamli egalik” tamoyillari asosida yondashuv shakllangan. Masalan, Yevropa Komissiyasi 2022-yilda qabul qilgan “Data Act” loyihasida “ma'lumotlardan foydalanuvchi huquqlari” ni aniq huquqiy doiraga kiritish harakati boshlangan⁷.

Huquq nazariyasi nuqtayi nazaridan raqamli mulkning subyektiv va obyektiv mulk huquqi doirasidagi pozitsiyasi hali-hanuz huquqshunoslar o'rtasida bahsli masala. Subyektiv mulk huquqi sifatida raqamli mulk – shaxsning o'z aktivlari ustidan ixtiyoriy foydalanish, tasarruf etish va foydalanish huquqini bildiradi. Obyektiv mulk huquqi sifatida esa u ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, blokcheyn asosida yaratilgan NFTlar bo'yicha ayrim yurisdiksiyalar ularni subyektiv mulk

⁷ European Commission. Proposal for a Regulation on harmonised rules on fair access to and use of data (Data Act). – Brussels: EU, 2022. – URL: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:52022PC0068>.
SJIF:5.219

sifatida tan olmoqda (masalan, AQSh va Yaponiya), boshqa davlatlar esa ularni intellektual mulkning yoki xizmat shartnomasining obyektlari sifatida baholamoqda (masalan, Germaniya, Fransiya)⁸. Xalqaro darajadagi ko‘p tomonlama shartnomalar, xususan, TRIPS bitimi – Intellektual mulk huquqlarining savdo jihatlari bo‘yicha bitim – raqamli mulkka bevosita bag‘ishlanmagan bo‘lsa-da, uning intellektual asoslarini tan oladi va ularni muhofaza qilishning xalqaro standartlarini belgilaydi. Bundan tashqari, Budapesht Shartnomasi (1977-yil), Bern Konvensiyasi (1886-yil) va WIPO Internet shartnomalari (1996-yil) raqamli kontent va uning muhofazasini ilgari surgan huquqiy asoslar sirasiga kiradi. Shu bilan birga, BMTning savdo huquqi bo‘yicha komissiyasi – UNCITRAL tomonidan ishlab chiqilgan “Elektron savdo to‘g‘risidagi Model qonun” va “Elektron imzolar to‘g‘risidagi Model qonun”larida raqamli muomala huquqiga oid normalar orqali raqamli mulk egaligining isboti masalalari ham nazarda tutilgan.

Milliy qonunchilikka ushbu multilateral shartnomalarning ta’siri turlicha bo‘lib, u davlatlarning huquqiy tizimi va konstitutsiyaviy tartiblariga bog‘liq. Masalan, Fransiyada raqamli aktivlar uchun alohida huquqiy rejim yaratilgan (PACTE qonuni, 2019-yil), Rossiyada esa “Raqamli mol-mulk to‘g‘risida”gi qonun loyihasi kripto-aktivlar va tokenlarga egalikni mulkiy huquq sifatida tan olishga qaratilgan. O‘zbekiston esa bu borada ilk qadam sifatida “Raqamli texnologiyalarni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi” orqali normativ-

⁸ WIPO. NFTs and Intellectual Property: Overview and Policy Questions. – Geneva: WIPO, 2023. – URL: <https://www.wipo.int/about-ip/en/nft>.
SJIF:5.219

huquqiy asoslar ishlab chiqishni boshlagan bo‘lib, bu milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish yo‘lidagi muhim harakatdir⁹.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik tizimida raqamli mulk huquqi to‘g‘ridan-to‘g‘ri mustaqil huquqiy institut sifatida ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, ayrim normativ-huquqiy hujjatlarda uning bilvosita shakllari mavjud. Bu holat raqamli muhitda mulkka egalik huquqini to‘liq kafolatlashda tizimli bo‘shliqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Konstitutsiyamizda aynan raqamli mulk haqida so‘z bormagan, ammo mulkka oid umumiy huquqlar ta’rif etilgan. Xususan, ularni ko‘rib chiqsak bo‘ladi. Masalan, 20-modda insonning huquqlari va erkinliklari davlat faoliyatining mazmunini belgilovchi asosiy mezon ekanini belgilaydi. Bu norma fuqarolarning raqamli muhitdagi huquqlari, jumladan, raqamli mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni boshqarish huquqlari ham bevosita amal qilishi kerakligini bildiradi. Ayniqsa, qonunchilikdagi noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi belgilangani, raqamli mulk masalasida ham mavjud bo‘shliqlarni fuqarolar manfaati yo‘lida to‘ldirish zarurligini ko‘rsatadi¹⁰. Bundan kelib chiqadiki, hozircha raqamli aktivlar borasida, huquqiy bo‘shliqlar bor ekan, xalqaro ratifikatsiya qilingan hujjatlarimizda ham raqamli mulkni tasarruf etishdagi kolliziyalar yuzaga chiqar ekan, aynan shu modda asosida har qanday dilimmada inson foydasiga qaror chiqariladi.

30-modda asosida raqamli mulkni rasmiy tartibga solmasdan, aynan bu obyektlar bo‘yicha mulkdorni jazolash, egalik huquqini cheklash yoki undan

⁹ “O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi tizimidagi ayrim tashkilotlarning faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 409-son VMQ. <https://lex.uz/docs/-4873208>.

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 20-modda. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>.

mahrum etish konstitutsiyaviy jihatdan noqonuniy hisoblanadi¹¹. Shunday ekan, qonunchilikda raqamli mulk tushunchasi va uning huquqiy maqomi rasmiy e'tirof etilishi, keyinchalik bu asosda javobgarlik yoki mulkni olib qo'yish kabi amallar huquqiy asosga ega bo'lishi zarur.

41-moddada mulkdor bo'lish har bir shaxsning konstitutsiyaviy huquqi sifatida mustahkamlangan. Bu prinsipga ko'ra, raqamli aktivlar, masalan, NFT, domen nomlari yoki dasturiy mahsulotlar ustidan ham egalik huquqi e'tirof etilishi lozim¹². Agar raqamli obyektlar mulk sifatida tan olinmasa, ushbu konstitutsiyaviy huquq to'laqonli amalga oshirilmaydi. 47-modda uy-joyga egalik qilish va undan mahrum etilmaslik prinsipini o'z ichiga olsa-da, bu prinsip keng talqinda barcha mulk obyektlariga, jumladan, raqamli mulk shakllariga ham tatbiq etilishi mumkin. Ayniqsa, foydalanuvchining raqamli platformadagi kontentidan sud qarorisiz mahrum qilinishi ushbu moddaga zid bo'lishi mumkin¹³. 53-modda intellektual mulkni qonun bilan muhofaza qilishni kafolatlaydi¹⁴. Bugungi raqamli aktivlar – dasturlar, algoritmlar, grafik tasvirlar – ko'pincha aynan intellektual mulk obyektlari bo'lib, ularni raqamli muhitda himoya qilish ushbu moddaning zamonaviy talqini asosida amalga oshirilishi zarur.

65–66-moddalarda barcha mulk shakllarining teng huquqliligi, xususiyl mulkning daxlsizligi va mulkdorning o'z mol-mulkini erkin tasarruf etish huquqi e'tirof etilgan¹⁵. Bu tamoyillarni raqamli aktivlar – xususan, kriptovalyutalar, tokenlar, NFTlar kabi yangi mulk shakllariga nisbatan qo'llash bugungi

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30-modda. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>.

¹² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 41-modda. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 47-modda. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 53-modda. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 65-66-moddalar. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>.

konstitutsiyaviy talablardan biridir. 67–68-moddalar iqtisodiy muhit va davlatning mulk munosabatlariga aralashuvi qoidalarini belgilaydi¹⁶. Davlat tomonidan raqamli mulkka nisbatan qulay investitsion muhit yaratish, shuningdek, ularni iqtisodiy muomalaga to‘liq jalb qilish uchun qonunchilik asoslarini yaratish konstitutsiyaviy majburiyat sifatida ko‘rilishi mumkin. O‘zbekiston Konstitutsiyasidagi ushbu moddalardan kelib chiqib aytish mumkinki, raqamli mulk hozirda to‘g‘ridan-to‘g‘ri e‘tirof etilmagan bo‘lsa-da, konstitutsiyaviy tamoyillar asosida bu tushunchaning huquqiy maqomini mustahkamlash uchun yetarlicha asos mavjud. Raqamli mulk ustidan egalik, foydalanish va tasarruf qilish huquqlarining konstitutsiyaviy darajada muhofaza qilinishi — raqamlashtirish jarayonida fuqarolarning huquqiy kafolatlarini kuchaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida mulk huquqi tushunchasi keng yoritilgan bo‘lsa-da, bu institut asosan an‘anaviy moddiy obyektlarga qaratilgan bo‘lib, raqamli mulk — xususan tokenlar, NFTlar, algoritmlar, dasturiy mahsulotlar yoki raqamli san‘at kabi yangi obyektlarning huquqiy maqomi hali-hanuz ochiq belgilanmagan. 164-moddaga ko‘ra, mulk huquqi shaxsning mol-mulkka o‘z xohishicha egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqini anglatadi. Bu moddada “mol-mulk” atamasi umumiy ko‘rinishda qo‘llanilgan bo‘lsa-da, uning raqamli variantlarini bevosita qamrab olmaydi. Natijada, raqamli obyektlar ustidan tasarruf qilish imkoniyati mavjud bo‘lsa-da, ularni huquqiy jihatdan mulk deb e‘tirof etish noaniqligicha qoladi. 166-moddada mulkning daxlsizligi kafolatlangan va faqat qonunda ko‘rsatilgan hollarda cheklanishi mumkinligi ta’kidlangan. Bu tamoyil raqamli aktivlarga ham qo‘llanishi kerak

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 67-68-moddalar. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>.
SJIF:5.219

bo'lsa-da, ularning o'zi mustaqil obyekt sifatida tan olinmagani bois amaliyotda egasining huquqlari ko'pincha kafolatsiz qolmoqda. 167–168-moddalarda mulk shakllari va subyektlari belgilangan, lekin bu yerda ham raqamli mulk egasi – masalan, NFT sotib olgan fuqaro yoki korxona – huquqiy subyekt bo'lishiga doir maxsus normalar mavjud emas. Eng asosiy bo'shliq esa 169-moddada seziladi. Unda mulk obyektlari sanab o'tilgan: korxonalar, binolar, pul, qimmatli qog'ozlar va intellektual mulklar. Ammo hozirgi texnologik taraqqiyotda yuzaga kelayotgan yangi mulk shakllari – raqamli aktivlar – bu ro'yxatga kiritilmagan. Bu esa ularning egalik huquqi ustidan huquqiy da'volar qo'zg'atishda qonunchilik asosining zaif bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, 172-modda mulk huquqini amalga oshirishda boshqalar huquqlariga zarar yetkazmaslikni nazarda tutadi. Bu raqamli aktivlar orqali yuzaga keluvchi nizolar, masalan, soxta tokenlar savdosi yoki plagiat bilan bog'liq holatlar uchun umumiy tamoyil bo'la oladi. Ammo aniq normativ asos bo'lmasa, himoya mexanizmlarining samaradorligi susayadi¹⁷.

Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar xalqaro standartlar bilan solishtirilganda bir qator zaifliklarga ega. Masalan, Yevropa Ittifoqining MiCA reglamenti kripto-aktivlarni moliyaviy aktivlar sifatida huquqiy aylanishga kiritgan va ularning egalik huquqini qat'iy tartibga solgan. eIDAS reglamenti esa elektron imzo va raqamli identifikatsiyani huquqiy isbot vositasi sifatida belgilaydi. O'zbekiston qonunchiligida esa elektron imzo va hujjatlarning daliliy kuchi ayrim qonunlarda umumiy tarzda tilga olingan bo'lsa-da, bu vositalar orqali raqamli mulkka bo'lgan huquqni aniqlash va himoya qilish mexanizmlari to'liq

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (1-qism). 164-166-167-168-169-172-moddalar. <https://lex.uz/docs/-111189>.

shakllanmagan. Shuningdek, raqamli mulk ustidan mulk huquqini davlat tomonidan kafolatlash, o'tkazish, meros sifatida berish, taqiqlash yoki hibsga olish tartiblari milliy qonunchilikda hali normativ asosga ega emas. Bu esa raqamli aktivlar bo'yicha huquqiy da'volarni ko'rib chiqishda noaniqliklar tug'diradi.

O'zbekiston 2005-yildan beri WIPO a'zosi hisoblanadi va bu doirada mualliflik, texnologik innovatsiyalar, patentlash va raqamli platformalar bilan bog'liq normativ muvofiqlikni ta'minlash bo'yicha bir qancha sa'y-harakatlar amalga oshirilgan. Biroq mavjud holat shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston hali raqamli mulk huquqiga doir asosiy xalqaro normalarning ko'piga to'liq qo'shilmagan. Masalan, WTO doirasidagi Raqamli savdo bo'yicha aniq majburiy me'yoriy hujjatlar mavjud emas, lekin O'zbekiston hali raqamli tovarlar va xizmatlar uchun o'ziga xos tarif va tartiblarni shakllantira olmagan. ITU doirasida esa O'zbekiston "raqamli ishonch" va "kiberxavfsizlik" indeksleri bo'yicha hali yetarlicha yuqori pozitsiyani egallamagan. Raqamli mulk bo'yicha xalqaro normalarga qo'shilmaganlikning huquqiy oqibatlari ko'p jihatdan mulk huquqining xalqaro miqyosda tan olinmasligi, transchegaraviy nizolar paydo bo'lganda himoya mexanizmlarining cheklanganligi va xalqaro investitsiya muhitida ishonchsizlik kuchayishiga olib keladi. Ayniqsa, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan xalqaro texnologik kompaniyalar uchun mulkni ro'yxatdan o'tkazish, egalikni aniqlash va huquqiy da'vo qilishda xalqaro huquqiy standartlar bilan uyg'un normativ mexanizmlarning mavjud emasligi muhim xavf hisoblanadi.

Raqamli mulk huquqini xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonida O'zbekiston huquqiy tizimi qator muhim muammolarga duch kelmoqda. Ushbu to'siqlar milliy qonunchilikda raqamli obyektlarning yuridik tabiati, huquqiy

subyektlar va obyektlarning aniq belgilab berilmaganligi, hamda normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasida mavjud bo‘lgan muvofiqlik yetishmovchiligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu holat raqamli egalik huquqining huquqiy jihatdan mustahkamlanishini va amaliyotda qo‘llanishini murakkablashtirayapti.

Birinchi navbatda, raqamli mulkning yuridik tabiati bo‘yicha yagona va aniq definitsiyaning milliy qonunchilikda mavjud emasligi asosiy to‘siqlardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida “mulk” tushunchasi an’anaviy moddiy aktivlar – ko‘chmas va ko‘char mulklar doirasida yoritilgan bo‘lib, raqamli shakldagi aktivlar (kriptovalyutalar, tokenlar, NFT, raqamli fayllar va algoritmik obyektlar) mazkur tushunchaga bevosita kiritilmagan. Bu esa raqamli mulkka egalik huquqini ro‘yxatdan o‘tkazish, sotish, meros qilib qoldirish va himoya qilish imkoniyatlarini cheklaydi. Zamonaviy huquqshunoslikda “raqamli mulk” tushunchasi nafaqat raqamli fayllarni, balki raqamli shakldagi egalikni isbotlovchi huquqiy vositalarni ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli, mavjud ta’riflarning yangilanishi va kengaytirilishi dolzarb masala hisoblanadi.

Ikkinchidan, subyekt va obyekt masalalarining noaniqligi ham qonunchilik uyg‘unlashtirilishining muhim to‘siqlaridan biridir. Masalan, raqamli mulk obyektlaridan biri bo‘lgan NFT (Non-Fungible Token) — u sotilayotgan san’at asarimi, raqamli faylmi, yoxud litsenziyami – degan savollar hanuzgacha qonuniy javobga ega emas. Yoki sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan kontent — u mustaqil subyekt tomonidan yaratilgan mulk sifatida e’tirof etiladimi yoki inson tomonidan buyruq asosida ishlab chiqilgan vosita deb baholanadimi – bu borada aniq yondashuv yo‘q. Mazkur aniqlikning yetishmasligi egalik huquqining subyekti kim bo‘lishi mumkinligini (fizik, yuridik shaxs, davlat yoki algoritmi)

noaniq qoldiradi va bu esa fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ko‘plab nizolarga olib keladi.

O‘zbekistonda raqamli mulk huquqining xalqaro standartlarga mos ravishda uyg‘unlashtirilishini ta’minlash uchun, avvalo, uning yuridik tabiati bo‘yicha aniq definitsiya ishlab chiqilishi, subyekt va obyekt masalalari bo‘yicha huquqiy mezonlar belgilanib, mavjud normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasida muvofiqlik va izchillik ta’minlanishi zarur. Aks holda, raqamli mulk ustidan egalik huquqini amalda ro‘yobga chiqarish va himoya qilishning huquqiy asoslari zaifligicha qolaveradi.

Zamonaviy global raqamli huquq makonida milliy qonunchilikni xalqaro tajriba bilan uyg‘unlashtirish ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, raqamli mulk huquqini shakllantirishda ilg‘or xalqaro amaliyotlarni hisobga olish, huquqiy transplantatsiya va moslashtirish jarayonlarining muhim qismiga aylangan. O‘zbekistonning xalqaro raqamli iqtisodiyot va intellektual mulk bozoriga integratsiyasi sharoitida, xalqaro standartlar asosida huquqiy normalarni milliy qonunchilikka tatbiq etish zaruriy hisoblanadi. Avvalo, xalqaro huquqiy tartibotda keng qo‘llanilayotgan “yumshoq huquq” (soft law) vositalaridan foydalanish milliy qonunchilikni isloh qilishning muhim mexanizmlaridan biridir. Yumshoq huquq – bu xalqaro tashkilotlar, ekspert guruhlar yoki transmilliy assotsiatsiyalar tomonidan ishlab chiqilgan, majburiy bo‘lmagan, lekin tavsiya etiladigan tamoyillar va mezonlardir. Masalan, YUNESKOning raqamli huquqlar bo‘yicha tamoyillari, OECDning raqamli xavfsizlik strategiyalari, ITUning raqamli ishonch va axborot infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalari — bular milliy

qonunchilikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiritilmasa-da, normativ asoslar ishlab chiqishda metodologik yo‘nalish beradi.

Ikkinchi muhim mexanizm — bu komparativ-huquqiy metod asosida huquqiy transplantatsiya qilish, ya’ni xorijiy davlatlarning muvaffaqiyatli huquqiy institutlarini moslashtirish orqali milliy tizimga tatbiq etish. Masalan, AQSHning “Digital Millennium Copyright Act” (DMCA) qonuni raqamli kontent va intellektual mulk himoyasi borasida samarali model hisoblanadi. Yevropa Ittifoqining MiCA reglamenti (Markets in Crypto-Assets) esa tokenlar va raqamli aktivlar ustidan nazoratni tashkil etishda tizimli yondashuvni taklif qiladi. Janubiy Koreyada esa “Digital Assets Basic Act” orqali raqamli mulkka doir huquqiy tartibot aniq va qat’iy belgilangan bo‘lib, unda regulyator agentliklarning vakolatlari, xavfsizlik mezonlari, shikoyatlar tartibi va fuqarolik muhofazasi institutsional asosda yo‘lga qo‘yilgan.

Uchinchi yo‘nalish sifatida, milliy qonunlar, kodekslar va reglamentlarga xalqaro tavsiyalar asosida aniq va amaliy modellarni kiritish masalasidir. Bunda ayniqsa “Raqamli mulk huquqi”ga oid maxsus qonun loyihasini ishlab chiqish lozim bo‘ladi. Misol uchun, fuqarolik kodeksiga “raqamli mulk” tushunchasini alohida obyekt sifatida kiritish, elektron shartnoma va raqamli isbot vositalarining huquqiy kuchini belgilash, sun’iy intellekt ishtirokidagi mulk obyektlariga egalikning huquqiy rejimini shakllantirish — bular xalqaro tajriba asosida amaliy modellashtirishni talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi raqamli iqtisodiyotga integratsiyalashish jarayonida raqamli mulk huquqini samarali tartibga solish va himoya qilish bo‘yicha huquqiy siyosatini xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirishga doir aniq

strategik yondashuvlarni ishlab chiqishi lozim. Mavjud normativ-huquqiy baza bu borada yetarli darajada tizimlashtirilmagan bo‘lib, milliy qonunchilikda ko‘plab bo‘shliqlar va izohga muhtoj jihatlar mavjud. Shuning uchun huquqiy siyosatni innovatsion, institutsional va xalqaro andozalar asosida shakllantirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. BMT. *Roadmap for Digital Cooperation*. United Nations, 2020.
2. YUNESKO. *Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence*. Paris, 2021.
3. WIPO. *WIPO Conversation on Intellectual Property and Artificial Intelligence*. Geneva, 2023.
4. ITU. *Principles of Trust and Security in the Digital Environment*. International Telecommunication Union, 2021.
5. OECD. *Digital Economy Outlook*. OECD Publishing, Paris, 2022.
6. European Union. *Regulation (EU) 2023/1114 on Markets in Crypto-Assets (MiCA)*, Official Journal of the European Union, 2023.
7. European Union. *Regulation (EU) No 910/2014 (eIDAS) on electronic identification and trust services for electronic transactions*.

8. European Union. *General Data Protection Regulation (GDPR) — Regulation (EU) 2016/679.*
9. European Commission. *Data Act Proposal*, Brussels, 2022.
10. TRIPS Agreement — *Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights*, WTO, 1994.
11. *Budapest Treaty on the International Recognition of the Deposit of Microorganisms for the Purposes of Patent Procedure*, WIPO, 1977.
12. *Berne Convention for the Protection of Literary and Artistic Works*, WIPO, 1886.
13. *WIPO Copyright Treaty*, 1996.
14. UNCITRAL. *Model Law on Electronic Commerce*, United Nations, 1996.
15. UNCITRAL. *Model Law on Electronic Signatures*, United Nations, 2001.
16. Fransiya. *PACTE Law – Plan d’Action pour la Croissance et la Transformation des Entreprises*, 2019.
17. AQSh. *Digital Millennium Copyright Act (DMCA)*, 1998.
18. Janubiy Koreya. *Digital Assets Basic Act*, 2023.



19. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 2023-yilgi tahriri.

20. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.